



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT QARORI

2025-yil 7-yanvar

№ 1/1

Toshkent sh.

“Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ijrosi 2024-yil dekabr oyi yakunlari, 2025-yil yanvar oyida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlarni so‘zsiz bajarish hamda ijro intizomiga qat’iy rioya etilishini ta‘minlash yuzasidan rahbar-xodimlarning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini yanada kuchaytirish bilan bog‘liq chora-tadbirlar to‘g‘risida

Vazirlik hay‘ati ta‘kidlaydiki, 2024-yilning dekabr oyi davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qarori asosida ijro intizomiga rioya etish, “Ijro.gov.uz” tizimida nazoratda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ijrosini ta‘minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

2024-yilning dekabr oyida ijrosi ta‘minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarini 15-dekabrga qadar ijrosini ta‘minlashga qaratilgan topshiriqlar ro‘yxati, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi *Kalendar reja* hamda “Yo‘l xarita”lar ishlab chiqilib, 22-oktyabr kuni eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Vazirlik markaziy apparatida ijro intizomiga rioya etilishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ijrosi, vazirlikning buyruqlari, hay‘at, selektor hamda apparat yig‘ilishi qarorlari, shuningdek, vazirlik va idoralardan kelib tushgan xat va hujjatlar ijrosi har haftaning juma kunlari vazirning birinchi o‘rinbosari, har haftaning dushanba kunlari Vazir hamda har haftada kamida bir marotaba O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi R.Abduqodirov huzurida tanqidiy ruhda muhokama qilinib, uning ijrosini belgilangan muddatlarda, to‘liq va sifatli qilib ta‘minlash bo‘yicha zarur choralar ko‘rib borilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 20-noyabrdagi 03-RA 2/1-3330/36-sonli ko‘rsatmasida joriy yilning dekabr oyida bajarilishi lozim bo‘lgan “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarining 40,0 foizini 1-dekabrga qadar va qolgan barcha topshiriqlarni 20-dekabrga qadar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha vazifalar yuklatilgan.

Hisobot davrida (2024-yilning dekabr oyi davomida) jami 4 ta (tizim tashkilotlari) rahbar-xodimlariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq hayfsan e‘lon qilingan.

Lekin, keyingi vaqtlarda vazirlik markaziy apparatining ayrim boshqarma boshliqlari va bo‘lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbar-xodimlarining befarqligi va mas‘uliyatsizligi natijasida ijro intizomiga rioya qilmaslik, “Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ijro muddatini kutib o‘tirish, ayrim holatlarda esa ijro muddati kelgan vaqtda uning ijrosini ta‘minlamasligi ma‘lum bo‘lib qolmoqda.

2024-yilning dekabr oyi davomida “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimidagi nazoratda bo‘lgan 463 ta (vazirlik asosiy ijrochi bo‘lgan) O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining topshiriqlaridan 443 tasi (95,7 foizi) to'liq bajarilib nazoratdan chiqarilgan va 20 ta (4,3 foiz) topshiriqning ijrosi ta'minlanmasdan ijro muddatini uzaytirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qaroriga binoan Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan bo'lib, Adliya vazirligi tomonidan qabul qilinib va ma'qullanib, Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi kutilmoqda.

Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamentining o'rinbosari N.Xo'jaqulovda - 8 ta, Raqamlashtirish boshqarmasi boshlig'i N.Galipshinda - 4 ta, Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish bo'limi boshlig'i v.b. A.Duvlonovda - 2 ta, Transchegaraviy suvlardan foydalanish va energetik siyosatni yuritish boshqarmasi boshlig'i v.b. O.Abdullayevda - 2 ta, Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi direktori o'rinbosari Sh.Batirovda - 2 ta, Suv xo'jaligi obyektlarining samaradorligini ta'minlash boshqarmasi boshlig'i v.b. R.Begmatov hamda Suv xo'jaligida islohotlar markazi direktori v.b. I.Jo'rayevda - 1 tadan topshiriqlarni ijro muddatini uzaytirishga takliflar kiritilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kun tartibidagi masala yuzasidan taqdim etilgan axborotlarni tinglab va muhokama qilib, ijro intizomiga rioya qilish borasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda turgan 2025-yil yanvar oyida bajarilishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ijrosini so'zsiz bajarish yuzasidan boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning ijro intizomiga qat'iy va so'zsiz rioya etilishi yuzasidan shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qiladi:

1. "Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ijrosi 2024-yil dekabr oyi yakunlari, 2025-yil yanvar oyida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlarni so'zsiz bajarish hamda ijro intizomiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash yuzasidan rahbar-xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini yanada kuchaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida"gi axborot **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. Vazir o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan 2024-yil dekabr oyi davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va yig'ilish bayonlarida vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar **qoniqarsiz deb topilsin.**

3. Ijro intizomiga rioya qilinishini tashkil etish borasida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yanligi hamda talabchanlikni susaytirib yuborganligi, 2024-yilning dekabr oyi davomida "Ijro.gov.uz" tizimidagi nazoratda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20 ta topshiriqlari ijrosini to'liq yakuniga yetkaza olmaganligi uchun Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev hamda vazir o'rinbosarlari X.Quvondiqov va D.Xodjiaxmedovlarning O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tushuntirish xati yozganliklari hamda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil yanvar oyida bo'lib o'tadigan Rayosat majlisida hisobot berishlari **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

4. Ijro intizomiga rioya qilish borasida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yanligi, 2024-yilning dekabr oyi davomida "Ijro.gov.uz" tizimidagi nazoratda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari ijrosiga befarqlik va mas'uliyatsizlik bilan yondoshganligi va topshiriqning ijrosini belgilangan muddatda bajarish choralari ko'rmaganligi uchun Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamentining o'rinbosari **N.Xo'jaqulov**, Raqamlashtirish boshqarmasi boshlig'i **N.Galipshin**, Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish bo'limi boshlig'i v.b.

A.Duvlonov, Transchegaraviy suvlardan foydalanish va energetik siyosatni yuritish boshqarmasi boshlig'i v.b. **O.Abdullayev**, Suv xo'jaligi obyektlarining samaradorligini ta'minlash boshqarmasi boshlig'i v.b. **R.Begmatov**, Suv xo'jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi direktori o'rinbosari **Sh.Batirov** hamda Suv xo'jaligida islohotlar markazi direktori v.b. **I.Jo'rayev**larga **so'nggi marotaba ogohlantirish e'lon qilinsin.**

Belgilab qo'yilsinki, "Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ijrosi 2024-yil dekabr oyi yakunlari muhokamasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil yanvar oyida bo'lib o'tadigan Rayosat majlisida ko'rib chiqilgandan keyin ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq **mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan intizomiy jazo choralari qo'llaniladi.**

5. Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev, vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, X.Quvondiqov va D.Xodjiyaxmedovlarga "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda turgan 2025-yil yanvar oyida bajarilishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ijrosini **25-yanvarga qadar** so'zsiz bajarish uchun shaxsan mas'ul ekanliklari **belgilab qo'yilsin.**

6. Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev, vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, X.Quvondiqov va D.Xodjiyaxmedovlarga Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari bilan birgalikda:

ikki kun muddat ichida "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda bo'lgan va 2025-yil yanvar oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan 120 ta topshiriqlarni ijrosini belgilangan muddatlarda ta'minlash;

ikki kun muddat ichida joriy yilning yanvar oyida "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarini tahlil qilib, ushbu topshiriqlar ichidan mablag' talab qilinadigan va horijiy mamlakatlar, shu jumladan, Halqaro moliya institutlari va chet el investitsiyalari bilan bog'liq masalalar bo'yicha birinchi navbatda shug'ullanib, **20-yanvarga qadar** to'laqonli va sifatli ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

25-yanvarga qadar ijrosini so'zsiz ta'minlash bo'yicha har bir vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari kesimida kalendar reja ishlab chiqish, tasdiqlash va uning ijrosi yuzasidan kunbay tizimida tahlil va monitoring yuritib, ijrosi ta'minlanishi va nazoratdan chiqarilishi bo'yicha natijadorlikka erishishni ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qaroriga muvofiq 2024-yil 3-dekabr kuni Vazir tomonidan tasdiqlangan hamda eslatma va ijro uchun taqdim qilingan topshiriqlar ro'yxati, vazirning birinchi o'rinbosari va vazir o'rinbosarlari kesimidagi Kalendar reja hamda "Yo'l xarita"da ko'rsatib qo'yilgan topshiriqlar ijrosini to'laqonli va sifatli ta'minlash vazifalari topshirilsin.

7. Vazir Kotibiyati mudiri A.Mangliyev hamda Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi boshlig'i M.Ibragimovlarga:

Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev tomonidan tasdiqlangan I va II kartotekaga kiritilgan 2025-yil yanvar oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ro'yxati, Kalendar reja hamda vazir o'rinbosarlari kesimidagi "Yo'l xarita"lar ijrosi yuzasidan har kunlik tizimli va qat'iy monitoring yuritish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha "Ijro.gov.uz" tizimiga kiritilgan ma'lumotlar va tasdiqlovchi hujjatlarga asosan topshiriqlarni nazoratdan yechish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Hisob palatasi bilan muntazam ravishda hamkorlikda ish olib borish;

“Ijro.gov.uz” tizimida nazoratda bo‘lgan 120 ta topshiriqlar ijrosini nazoratdan yechish bo‘yicha yanvar oyi davomida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida doimiy faoliyat yurituvchi Shtab tashkil qilib, ijrosini nazoratdan yechish bo‘yicha kerakli Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlarini taklif qilib, muammoli masalalarni uzil-kesil yechish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

8. Mazkur hay‘at yig‘ilishi qarorining ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari (ijro intizomi uchun mas‘ul T.Butunbayev zimmasiga yuklatilsin.

Hay‘at raisi



Sh. Xamrayev